

TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI DOIRASIDAGI AMALIY HAMKORLIK O‘ZARO ISHONCHNI MUSTAHKAMLAMOQDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning taklifiga binoan 6-7-oktabr kunlari amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi.



Prezident Shavkat Mirziyoyev 7-oktabr kuni Turkiy davlatlar tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining Gabala shahrida o‘tgan navbatdagi yig‘ilishida ishtirok etdi. Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev raisligida o‘tgan tadbirda Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti

Sadir Japarov, Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘an, Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov, Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban, Turkiy davlatlar tashkiloti bosh kotibi Kubanichbek Omuraliyev va boshqa rasmiy shaxslar ham qatnashdi.

Kun tartibiga muvofiq, tashkilot doirasidagi ko‘p qirrali hamkorlikning bugungi holati va istiqbollari yuzasidan fikr almashildi, amaliy sheriklikning dolzarb masalalari muhokama qilindi. Davlatimiz rahbari so‘zining avvalida Ozarbayjon Prezidentiga qadimdan Buyuk ipak yo‘lidagi muhim savdo va madaniyat

markazlaridan biri bo‘lgan Gabala shahrida sammit yuksak darajada tashkil etilgani uchun samimiy minnatdorlik bildirdi.

— Sizing bevosita tashabbusingiz bilan biz oxirgi yillarda zamonaviy Ozarbayjonning ko‘plab hududlariga tashrif buyurdik. Go‘zal Qorabog‘ kun sayin obod bo‘layotganiga, Shusha, Xonkendi, Ag‘dam shaharlaridagi ulkan bunyodkorlik ishlariga guvoh bo‘ldik. Albatta, yaqin do‘stlaringiz sifatida bu ijobiy jarayonlar bizlarni juda quvontiradi, — dedi davlatimiz rahbari.

Ozarbayjon va Armaniston o‘rtasida imzolangan Tinchlik deklaratsiyasi tashkilot mamlakatlariga savdo, iqtisodiyot, transport va gumanitar sohalarida hamkorlik qilish uchun keng imkoniyatlar ochayotgani alohida ta’kidlandi.

Davlatimiz rahbari, shuningdek, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovga TDTga samarali raislik qilgani va hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishga qo‘shgan munosib hissasi uchun minnatdorlik bildirdi.

Sammit kun tartibiga o‘tar ekan, O‘zbekiston yetakchisi bugungi xalqaro vaziyatga qisqacha tavsif berdi.

Bu galgi yig‘ilish murakkab geosiyosiy o‘zgarishlar, dunyoda va mintaqada xavfsizlikka tahdidlar kuchayib borayotgan sharoitda o‘tayotgani ta’kidlandi.

— Yaqinda Nyu-York shahrida bo‘lib o‘tgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining yubiley sessiyasidagi jahon yetakchilarining chiqish va yondashuvlari ham zamonaviy dunyoning siyosiy va xavfsizlik arxitekturasini bo‘yicha yakdil pozitsiya yo‘qligini yana bir bor namoyon etdi, — dedi davlatimiz rahbari.

Shu nuqtaiy nazardan, global boshqaruv tizimini chuqur isloh qilish va takomillashtirish, BMT va Xavfsizlik Kengashining rolini oshirish, shuningdek, xalqaro ishlarda rivojlanayotgan

mamlakatlarning ovozi kuchaytirish zarurligi yana bir bor ta’kidlandi.

Yevroosiyo qit‘asida tobora avj olayotgan, oxiri ko‘rinmayotgan mojaro va urushlar Tashkilot davlatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgani qayd etildi. G‘azo sektoridagi fojia, Ukraina atrofidagi vaziyat, Eronning yadro dasturi muammosi, Afg‘onistondagi barqarorlik masalalari jiddiy xavotir uyg‘otmoqda.

O‘zbekiston rahbari jahonning qudratli davlatlarining adolati dunyo tartibotini shakllantirish, o‘zaro ishonch va xavfsizlikni ta’minlash borasidagi intilishlari va yangi rejalarni olqishladi.

Global vaziyatni chuqur tahlil qilish va zarur qarorlar qabul qilish maqsadida TDT mamlakatlari tashqi siyosiy idoralari va maxsus xizmatlari rahbarlarining qo‘shma uchrashuvlarini o‘tkazish va bunday formatdagi birinchi yig‘ilishni kelgusi yilda Samarqand shahrida tashkil etish taklif qilindi.

O‘zbekiston yetakchisi qisqa muddatda jadal rivojlanib borayotgan nufuzli xalqaro tuzilmalar qatoriga kirgan Turkiy davlatlar tashkilotining o‘rni va ahamiyati tobora ortib borayotganini ta’kidladi. Oliy darajadagi siyosiy muloqot kengayib, o‘zaro ishonch mustahkamlanib borayotgani, qo‘shma loyihalar va gumanitar dasturlar faol amalga oshirilayotgani bundan dalolat beradi.

Bugungi kunda TDT doirasida 35 dan ortiq yo‘nalishda amaliy hamkorlik qilinmoqda. O‘zaro savdo hajmi barqaror oshib bormoqda va 2030-yilga borib ikki barobar ko‘payishi kutilmoqda.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqining asosiy qismida amaliy hamkorlikni yanada kengaytirishning aniq masalalariga to‘xtaldi.

Tashkilotning nufuzi va salohiyatini oshirish, yaqin istiqbolida uning samarali hamkorlik maydoni sifatidagi rolini kuchaytirish ustuvor vazifa ekanini ta’kidlandi.

— Bu borada Turkiy davlatlar o‘rtasida strategik sheriklik, abadiy do‘stlik va qardoshlik to‘g‘risidagi bitimni tezroq kelishib, qabul qilish tarafdorimiz. Albatta, bu muhim bitim hamkorligimizni rivojlantirish yo‘lida asosiy siyosiy hujjat sifatida qardosh xalqlarimizni yanada yaqinlashtirish, amaliy aloqalarni yangi bosqichga olib chiqishda mustahkam zamin bo‘lib xizmat qiladi, — dedi mamlakatimiz yetakchisi.

Ko‘p qirrali sheriklikni kengaytirish va jadallashtirish maqsadida Turkiy davlatlar tashkilotini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi va uni amalga oshirish bo‘yicha alohida “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish taklif qilindi. Ushbu hujjatlarda quyidagi aniq yo‘nalish va chora-tadbirlarni aks ettirish zarurligi qayd etildi.

Birinchidan, savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish.

O‘zbekiston Prezidenti yaqin istiqbolida TDT doirasida savdo, biznes va o‘zaro investitsiyalar uchun eng qulay sharoitlar, huquqiy asos va infratuzilma yaratishni nazarda tutadigan Yangi iqtisodiy imkoniyatlar makonini shakllantirish muhimligini yana bir bor ta’kidladi.

Amaliy hamkorlikni izchil rivojlantirish va aniq loyihalarni ishlab chiqish, xususan, Turkiy investitsiya jamg‘armasi doirasidagi rejalarni kelishish maqsadida Turkiy davlatlarning iqtisodiy sheriklik bo‘yicha doimiy kengashini ta’sis etish muhimligi qayd etildi. Doimiy asosda faoliyat yuritadigan ushbu tuzilmaga Tashkilot mamlakatlari Bosh vazirlarining o‘rinbosarlari rahbarlik qilishi mumkin. Kengashning Loyiha ofisini Toshkent shahrida joylashtirish taklif etildi.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOEYEVNING TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI SAMMITIDAGI NUTQI

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Qadimdan Buyuk ipak yo‘lining muhim savdo va madaniyat markazlaridan biri bo‘lgan betakror Gabala shahrida siz, aziz qardoshlarim bilan diyor ko‘rishib turganimdan behad mamnunman.

Avvalambor, samitni yuqori saviyada tashkil etganlari, an’anaviy va samimiy mehmondo‘stlik uchun Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti, hurmatli Ilhom Haydarovich Aliyev Janobi Oliylariga minnatdorlik izhor etaman.

Sizing bevosita tashabbusingiz bilan biz oxirgi yillarda zamonaviy Ozarbayjonning ko‘plab hududlariga tashrif buyurdik. Go‘zal Qorabog‘ kun sayin obod bo‘layotganiga, Shusha, Xonkendi, Ag‘dam shaharlaridagi ulkan bunyodkorlik ishlariga guvoh bo‘ldik.

Albatta, yaqin do‘stlaringiz sifatida bu ijobiy jarayonlar bizlarni juda quvontiradi.

Sizing qat’iy siyosiy irodangiz tufayli Armaniston bilan imzolangan Tinchlik deklaratsiyasi esa Turkiy davlatlarning ham umumiy g‘alabasidir, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Butaxiyi kelishuv mamlakatlarimiz uchun savdo, iqtisodiyot, transport va gumanitar sohalarida yaqin hamkorlik borasida keng imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda.

Hurmatli hamkasblar!

Yil davomida Tashkilotimiz faoliyatida samarali raislik qilgani, hamkorligimizni yangi bosqichga ko‘tarishga munosib hissa qo‘shgani uchun Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti hurmatli Sadir Nurg‘ojoyevich Japarov Janobi Oliylariga tashakkur bildiraman.

“Mintaqaviy tinchlik va xavfsizlik” mavzusidagi bugungi uchrashuvimiz dunyoda murakkab geosiyosiy o‘zgarishlar yuz berayotgan va xavfsizlikka tahdidlar tobora ortib borayotgan bir sharoitda o‘tmoqda. Hozir so‘zga chiqqan hamkasblarim bu muammolar bo‘yicha o‘z fikr va takliflarini bildirib o‘tdilar.

Yaqinda Nyu-York shahrida bo‘lib o‘tgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining yubiley sessiyasidagi jahon yetakchilarining chiqish va yondashuvlari ham zamonaviy dunyoning siyosiy va xavfsizlik arxitekturasini bo‘yicha yakdil pozitsiya yo‘qligini yana bir bor namoyon etdi.

Davrim o‘zi bizdan global boshqaruv tizimini chuqur isloh qilish va takomillashtirish, BMT va uning Xavfsizlik

Kengashi rolini oshirishni taqozo qilmoqda. Jumladan, rivojlanayotgan davlatlarning o‘rni va ovozi mustahkamlashda yaqin hamkorlikni kuchaytirish muhim vazifadir.

Dunyodagi eng og‘riqli muammolar, Yevroosiyo mintaqasida avj olayotgan va oxiri ko‘rinmayotgan nizo va urushlar, albatta, bizning davlatlarimizga ham o‘z salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda.

G‘azo sektoridagi fojia, Ukraina atrofidagi vaziyat, Eronning yadro dasturi muammosi, Afg‘onistonning barqarorligi masalalari barchamizni jiddiy tashvishga soladi.

Jahonning qudratli davlatlari tomonidan adolati dunyo tartibotini shakllantirish, o‘zaro ishonch va xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qiladigan intilish va yangi rejalarni olqishlaymiz.

O‘ylaymanki, global vaziyatni chuqur tahlil etish va kerakli qarorlar qabul qilish maqsadida Turkiy davlatlar tashkiloti tashqi ishlar vazirlari va maxsus xizmatlar rahbarlarining birgalikdagi uchrashuvlarini muntazam o‘tkazib borishni ham zamonning o‘zi taqozo qilmoqda. Biz birinchi qo‘shma uchrashuvni kelgusi yili Samarqand shahrida o‘tkazish tashabbusi bilan chiqamiz.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, Turkiy davlatlar tashkiloti qisqa vaqt ichida jadal rivojlanib borayotgan nufuzli xalqaro tuzilmalar qatoriga kirdi. Avvalambor, mamlakatlarimiz o‘rtasida yuksak darajadagi siyosiy muloqotlar faollashgani, o‘zaro ishonch mustahkamlanayotgani, amaliy sheriklik loyihalari va gumanitar dasturlar

hayotga faol tatbiq etilayotgani buni yaqqol tasdiqlaydi.

Birgina misol keltirmoqchiman. Bugungi kunda Tashkilotimiz doirasida o‘ttiz beshdan ziyod yo‘nalishlarda amaliy hamkorlik olib borilmoqda. Mamlakatlarimiz o‘rtasida o‘zaro savdo hajmi barqaror o‘sib bormoqda va bu ko‘rsatkich 2030-yilga qadar ikki barobar oshishi kutilmoqda.

Kun tartibidan kelib chiqib, bir qator masalalarga alohida to‘xtalib o‘tmoqchiman.

Tuzilmamizning mavqei va salohiyatini yanada oshirish, yaqin kelajakda uning samarali hamkorlik maydoni sifatidagi o‘rni mustahkamlash oldimizda turgan ustuvor vazifadir.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON VA ROSSIYA PREZIDENTLARI TELEFON ORQALI MULOQOT QILDILAR

7-oktabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning telefon orqali muloqoti bo‘lib o‘tdi.

Davlatimiz rahbari Rossiya yetakchisini tavallud kuni bilan madaniyat markazlaridan biri bo‘lgan betakror Gabala shahrida siz, aziz qardoshlarim bilan diyor ko‘rishib turganimdan behad mamnunman.

Oliy darajadagi kelishuvlarni amalga oshirish doirasida O‘zbekiston — Rossiya keng qamrovli strategik sheriklik va itifoqchilik munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlashning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

O‘zaro tovar ayiriboshlash ko‘rsatkichlarining o‘sish sur‘atini davom ettirish, yetakchi korxona va kompaniyalarning sanoat, energetika, qishloq

xo‘jaligi va boshqa ustuvor yo‘nalishlardagi kooperatsiya loyihalarini ilgari surish, ikki mamlakat hududlarining ishbilarmonlik aloqalarini kengaytirishga alohida e’tibor qaratildi.

Faol madaniy-gumanitar almashinuvlar davom etayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Tomonlar xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar, bo‘lajak tadbirlar rejasini muhokama qildilar.

O‘ZA



XXI asr global o‘zgarishlar, yangi imkoniyatlar va jiddiy xatarlar asriga aylandi. Jahonda demokratik jarayonlar chuqurlashar ekan, barqaror rivojlanishning asosiy shartlaridan biri sifatida gender tenglik masalasi markaziy o‘ringa chiqdi. Chunki har bir davlatning iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy taraqqiyotida ayollar va erkaklar teng huquq hamda imkoniyatlarga ega bo‘lishi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda so‘nggi sakkiz yildagi keng ko‘lamli islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri ham aynan shu sohani qamrab oldi. Yurtimizda demokratik islohotlar chuqurlashdi, inson huquqlari, ayniqsa, ayollar huquq va manfaatlari davlat siyosatining uzviy qismiga aylandi. Shu ma’noda, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida inson qadriini ulug‘lash va huquqiy-ijtimoiy davlat qurish g‘oyasi asosiy o‘ringa qo‘yildi. Bugungi islohotlar jarayonida nafaqat iqtisodiy yoki siyosiy sohalar, balki jamiyatning ma’naviy qiyofasi, ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillari ham asosiy masalaga aylandi.

Gender tenglik masalasi bugun faqat milliy darajada emas, balki jahon miqyosida ham barqaror taraqqiyot, tinchlik va inson huquqlari ta’minlanishining eng muhim kafolatiga aylandi. Shu bois, biz nafaqat o‘z qonunchilik va davlat dasturlarimiz doirasida, balki xalqaro hamkorlik orqali ham bu masalani olg‘a surishimiz shart.

Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasidagi nutqida aynan gender siyosatini O‘zbekiston taraqqiyotining muhim ustuvor yo‘nalishi sifatida qayd etdi.

Davomi 3-betda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI SAMMITIDAGI NUTQI

Boshlanishi 1-betda

Bu borada Turkiy davlatlar oʻrtasida strategik sheriklik, abadiy doʻstlik va qardoshlik toʻgʻrisidagi shartnomani tezroq kelishib, qabul qilish tarafdorimiz. Albatta, bu muhim bitim hamkorligimizni rivojlantirish yoʻlida asosiy siyosiy hujjat sifatida qardosh xalqlarimizni yanada yaqinlashtirish, amaliy aloqalarni yangi bosqichga olib chiqishda mustahkam zamin boʻlib xizmat qiladi.

Koʻp qirrali sherikligimizni yanada kengaytirish va jadallashtirish maqsadida Tashkilotning 2030-yilga qadar boʻlgan rivojlanish strategiyasi va alohida “yoʻl xaritasi”ni ishlab chiqishni taklif etamiz. Bunda quyidagi aniq yoʻnalishlar va chora-tadbirlarni koʻzda tutishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Birinchidan, mamlakatlarimiz oʻrtasida savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirishni asosiy yoʻnalish sifatida koʻramiz.

Yaqin kelajakda Tashkilotimiz doirasida Yangi iqtisodiy imkoniyatlar makonini shakllantirish tarafdorimiz. Soʻz, birinchi navbatda, savdo, biznes va oʻzaro investitsiyalar uchun eng qulay sharoitlarni, huquqiy baza va infratuzilmani yaratish haqida ketmoqda.

Amaliy hamkorlikni izchil rivojlantirish va aniq loyihalarni ishlab chiqish, jumladan, Turkiy investitsiya jamgʻarmasi doirasidagi rejalarni kelishish maqsadida Turkiy davlatlarning iqtisodiy sheriklik boʻyicha doimiy kengashini tashkil etish vaqti keldi. Bu tuzilma mamlakatlarimiz Bosh vazirlari oʻrinbosarlari tomonidan boshqarilib, doimiy faoliyat olib borishi muhim. Kengashning Loyiha ofisini esa Toshkentda joylashtirishga tayyormiz.

Kengash doirasida bir qator yangi tashabbuslarni amalga oshirishimiz mumkin. Jumladan, Turkiy davlatlarning Sanoat alyansini tuzish va bu orqali mashinasozlik, kon sanoati, elektrotexnika, neft-kimyo, farmatsevtika, yengil sanoat, oziq-ovqat, qurilish materiallarini ishlab chiqarish sohalarida yetakchi kompaniyalarimizning kooperatsiya loyihalarini ilgari surish; oʻzaro savdo hajmlarini keskin oshirish va texnik reglamentlarni yaqinlashtirish maqsadida “Turkiy yashil yoʻlaklar” elektron tizimini joriy etish zarur; “yashil” energetika, “yashil” vodorod va ammiak loyihalarini birgalikda amalga oshirish, ilgʻor texnologiyalar, standartlar va kompetensiyalarni jalb qilish, davlat va xususiy sheriklik mexanizmlarini keng tatbiq etish uchun “Yashil transformatsiya” konsorsiumini tashkil etish; strategik minerallar bazasini oʻzlashtirish va koʻshilgan qiymatli mahsulotlarni ishlab chiqarish kabi masalalar Kengashning doimiy eʼtiborida turishi dardkor.

Bunda “xomashyo — qayta ishlash — ilm va texnologiyalar — tayyor mahsulot” tamoyili asosida amaliy Hamkorlik dasturini qabul qilish muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlashda organik qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va yetkazib berishda mamlakatlarimiz dunyo yetakchilaridan boʻlishlari mumkin.

FAOning tahlillariga koʻra, bugungi kunda organik mahsulotlarning jahon bozoridagi hajmi 225 milliard dollardan koʻproqni tashkil etadi va bu raqamlar istiqbolda har yili 10 foizga oʻsishi kutilmoqda.

Davlatlarimizning bu boradagi salohiyatidan kelib chiqib, sifati va talab yuqori boʻlgan organik mahsulotlarni ishlab chiqarishda ilmiy izlanishlar va seleksiya, sanoat kooperatsiyasi va logistika aloqalarini kuchaytirishimiz lozim.

Kelajakda organik mahsulotlarimiz jahon bozoriga yagona brend bilan chiqishi mumkin. Bu borada qishloq xoʻjaligi vazirlarimiz nazoratida Ekspert ishchi guruhini tashkil etib, dastlabki “pilot” loyihalarini saralash va mamlakatlarimizda amalga oshirishni taklif etamiz.

Uchinchidan, turkiy davlatlarning transport sohasidagi oʻzaro bogʻliqligini kuchaytirish va xalqaro tranzit yoʻlaklarini rivojlantirishda muvofiqlashtirilgan siyosat olib borish zarurligini hammamiz chuqur anglab turibmiz.

Oʻrta koridorni izchil rivojlantirish borasidagi aytib oʻtilgan barcha rejalarni toʻliq qoʻllab-quvvatlaymiz. Eng asosiy, bu yoʻlak raqobatbardoshligi bilan ajralib turishi lozim. U biznes hamjamiyati uchun eng qulay shart-sharoitlarni taʼminlab berishi kerak.

Bu borada maqbul tranzit tariflarini qoʻllash, zamonaviy transport infratuzilmasini rivojlantirish va raqamlashtirilgan boʻxona tartibotini joriy qilish boʻyicha loyihalarga katta ahamiyat beramiz.

Shuni alohida taʼkidlash lozimki, Oʻrta koridor hozirda qurilayotgan Xitoy — Qirgʻiziston — Oʻzbekiston temir yoʻli va istiqbolli Transafgʻon yoʻlagi bilan bogʻlansa, keng mintaqamizda koʻp tarmoqli, strategik magistrallar tizimini yaratishga erishamiz.

Aminmanki, transport sohasi bilan bogʻliq barcha tashabbuslarimiz 12-noyabr kuni Toshkent shahrida boʻlib oʻtadigan Multimodal tashuvlar boʻyicha xalqaro forum doirasida batafsil muhokama qilinadi. Bu tadbirda transport vazirlari, yirik logistika kompaniya va uyushmalari rahbarlari, olim va ekspertlardan iborat milliy delegatsiyalarning faol ishtirok etishlariga ishonamiz.

Toʻrtinchidan, yirik sanoat va infratuzilma loyihalarini toʻgʻrisida gapirganimizda, samarali moliyaviy instrumentlarni joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu borada biz albatta Turkiy investitsiya jamgʻarmasining faoliyatini kengaytirish tarafdorimiz. Shu bilan birga, ustuvor loyihalarga qoʻshimcha mablagʻlar jalb etish maqsadida Islom taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, boshqa xalqaro moliya va milliy rivojlanish institutlari bilan Strategik hamkorlik dasturini qabul qilishni taklif etamiz.

Beshinchidan, sunʼiy intellekt, raqamlashtirish va kreativ iqtisodiyot sohalarini mamlakatlarimizning

barqaror rivojlanishida muhim drayverlarga aylanmoqda.

Bu sohalaridagi saʼy-harakatlarimizni birlashtirish uchun “Sunʼiy intellekt va kreativ iqtisodiyot loyihalarini amalga oshirish boʻyicha “yoʻl xaritasi”ni qabul qilishni taklif etamiz.

Shu bilan birga, Turkiy dunyo xalqaro koʻrgazmasini mamlakatimizda oʻtkazish tashabbusini bildiramiz.

Oltinchidan, “Jaholatga qarshi — maʼrifat” tamoyili asosida ilm-fan va taʼlim sohalarida hamkorligimizni yangi bosqichga koʻtarish muhim.

Oʻzbekiston 2025-2026-yillarda 100 dan ziyod universitetlarni oʻz ichiga olgan Turkiy universitetlar ittifoqiga raislik qiladi. Kelgusi hafta Ittifoq Bosh Assambleyasining yigʻilishi Toshkent shahrida boʻlib oʻtadi.

Raisligimiz davrida “Turkiy ilm-fan va innovatsiyalar kunlari”ni oʻtkazish tashabbusi bilan chiqamiz.

Sohadagi hamkorlikni mustahkamlash, iqtidorli olimlarning izlanishlarini ragʻbatlantirish maqsadida Oʻzbekistonda Turkiy davlatlar xalqaro universiteti oʻz faoliyatini boshlamqda. Ushbu oliyogʻ negizida Qoʻshma tadqiqotlarni qoʻllab-quvvatlash dasturini ishlab chiqsak, ayni muddao boʻlar edi.

Yettinchidan, yoshlarimiz orasida yot va buzgʻunchi gʻoyalarni tarqalishining oldini olish maqsadida turkiy davlatlar makonida ekstremistik va radikal mafkuraga qarshi kurashishga qaratilgan Harakatlar rejasini qabul qilishni taklif etaman.

Ayni vaqtda biz islomofobiyaning har qanday koʻrinishlariga qarshi kurashish borasida ham yaqin muloqotlarni davom ettiramiz.

Bundan tashqari, Tashkilotimiz doirasida Yoshlar oʻrtasida ekologik bilimlar boʻyicha qoʻshma chora-tadbirlarni ishlab chiqish bu yoʻlda muhim qadam boʻlishi shubhasiz.

Yana bir masalaga alohida toʻxtalmoqchiman. Biz kelgusi yilda buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning 585 yilligi hamda ulugʻ Ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy tavalludining 885 yilligini keng nishonlaymiz.

Ana shu mumtoz siymolarning insonparvarlik, oʻzaro doʻstlik va birdamlik haqidagi gʻoyalari, bebaho adabiy merosini keng targʻib etish maqsadida “Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy ijodi — Turkiy dunyo maʼnaviy hayotida” mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya oʻtkazishni taklif etamiz.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Soʻzimning yakunida Tashkilotimizda raislikni qabul qilib olayotgan Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti, hummatli Ilhom Haydarovich Aliyevga ulkan omadlar tilayman.

Bugun qabul qilinadigan Gabala deklaratsiyasi birgalikda ilgari surayotgan ezuq tashabbus va rejalarimizni yanada mustahkamlab, davlatlarimizning umumiy taraqqiyotiga, qardosh xalqlarimiz farovonligiga munosib hissa qoʻshadi, deb ishonaman.

Eʼtiboringiz uchun rahmat.

TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI DOIRASIDAGI AMALIY HAMKORLIK OʻZARO ISHONCHNI MUSTAHKAMLAMOQDA

Boshlanishi 1-betda

Oʻzbekiston rahbari taʼkidlaganidek, quyidagi masalalar Kengashning doimiy eʼtiborida boʻlishi kerak:

— Turkiy davlatlar Sanoat alyansini tuzish va shu orqali mashinasozlik, togʻ-kon sanoati, elektrotexnika, neft-kimyo, farmatsevtika, yengil, oziq-ovqat sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish sohalarida yetakchi kompaniyalarning kooperatsiya loyihalarini ilgari surishga koʻmaklashish;

— oʻzaro savdo hajmini yanada oshirish va texnik reglamentlarni yaqinlashtirish maqsadida “Turkiy yashil yoʻlaklar” elektron tizimini joriy etish;

— “yashil” energetika, “yashil” vodorod va ammiak boʻyicha loyihalarni birgalikda amalga oshirish, ilgʻor texnologiyalar, standartlar va vakolatlar-ni jalb qilish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng joriy etish uchun “Yashil transformatsiya” konsorsiumini tashkil etish;

— strategik minerallar xomashyo bazasini rivojlantirish asosida qoʻshilgan qiymatli mahsulotlarni ishlab chiqarish.

Shu bilan birga, “xomashyo — qayta ishlash — ilm va texnologiyalar — tayyor mahsulot” tamoyili asosida amaliy hamkorlik dasturini qabul qilish muhimligi taʼkidlandi.

Ikkinchidan, oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlash. Mavjud salohiyatni hisobga olgan holda, TDT mamlakatlari organik qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va yetkazib berish boʻyicha jahon yetakchilariga aylanishi mumkin.

FAO tahliliga koʻra, bugungi kunda jahon organik mahsulotlar bozori hajmi 225 milliard dollardan oshadi va kelajakda bu koʻrsatkich har yili 10 foizga oʻsishi kutilmoqda.

Sifati va xaridorgir organik mahsulotlar ishlab chiqarish uchun ilmiy-tadqiqot va seleksiya, sanoat kooperatsiyasi va logistika aloqalarini kuchaytirish zarurligi taʼkidlandi.

— Kelajakda organik mahsulotlarimiz jahon bozoriga yagona brend bilan chiqishi mumkin. Bu borada qishloq xoʻjaligi vazirlarimiz nazoratida Ekspert ishchi guruhini tashkil etib, dastlabki “pilot” loyihalarni saralash va mamlakatlarimizda amalga oshirishni taklif etamiz, — dedi Oʻzbekiston yetakchisi.

Uchinchidan, transport jihatidan oʻzaro bogʻliqlikni kuchaytirish va xalqaro

tranzit yoʻlaklarini rivojlantirish sohasida muvofiqlashtirilgan siyosatni amalga oshirish.

Mamlakatimiz yetakchisi Oʻrta koridorni izchil rivojlantirish borasidagi rejalarni qoʻllab-quvvatlab, ushbu yoʻnalishning raqobatbardoshligini taʼminlash va biznes hamjamiyati uchun eng qulay sharoitlar yaratish muhim ekanini taʼkidladi.

Shu maʼnoda, maqbul tranzit tariflarini qoʻllash, zamonaviy transport infratuzilmasini rivojlantirish va raqamli boʻxona tartib-taomillarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻrta koridor qurilayotgan Xitoy — Qirgʻiziston — Oʻzbekiston temir yoʻli va istiqbolli Transafgʻon yoʻlagi bilan bogʻlansa, ulkan mintaqada koʻp tarmoqli, strategik magistrallar tizimini yaratiladi.

Transport sohasiga oid bu tashabbuslarning barchasi 12-noyabr kuni Toshkent shahrida boʻlib oʻtadigan Multimodal tashuvlar boʻyicha xalqaro forum doirasida atroficha muhokama qilinishi rejalashtirilgan.

Toʻrtinchidan, keng koʻlamli sanoat va infratuzilma loyihalarini amalga oshirish uchun samarali moliyaviy vositalarni joriy etish.

Oʻzbekiston Prezidenti Turkiy investitsiya jamgʻarmasi faoliyatini kengaytirish, ITB, ETTB va boshqa xalqaro hamda milliy moliya institutlari bilan Strategik hamkorlik dasturini qabul qilish tashabbusini ilgari surdi.

Beshinchidan, barqaror rivojlanishning muhim drayverlariga aylanayotgan sunʼiy intellekt, raqamlashtirish va kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish.

Ushbu yoʻnalishlardagi saʼy-harakatlarni birlashtirish maqsadida sunʼiy intellekt va kreativ iqtisodiyot sohalaridagi loyihalarni amalga oshirish boʻyicha “yoʻl xaritasi”ni qabul qilish taklif etildi.

Davlatimiz rahbari Oʻzbekistonda Turkiy dunyo xalqaro koʻrgazmasini oʻtkazish tashabbusini ilgari surdi.

Oltinchidan, “Jaholatga qarshi — maʼrifat” tamoyili asosida ilm-fan va taʼlim sohasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish.

2025-2026-yillarda mamlakatimiz 100 dan ortiq taʼlim muassasalarini birlashtirgan Turkiy universitetlar ittifoqiga raislik qilishi taʼkidlandi. Kelgusi hafta Toshkentda ittifoq Bosh assambleyasining yigʻilishi boʻlib oʻtadi.

Oʻzbekiston raislik davrida “Turkiy ilm-fan va innovatsiyalar kunlari”ni oʻtkazish niyatida.

Oʻzbekiston Prezidenti ilm-fan va taʼlim sohalaridagi hamkorlikni mustahkamlash, iqtidorli olimlarning tadqiqotlarini ragʻbatlantirish maqsadida mamlakatimizda Turkiy davlatlar xalqaro universiteti oʻz faoliyatini boshlayotganini maʼlum qildi. Davlatimiz rahbari uning negizida Qoʻshma tadqiqotlarni qoʻllab-quvvatlash dasturini ishlab chiqishni taklif etdi.

Yettinchidan, yoshlar orasida yot va buzgʻunchi gʻoyalarni tarqalishining oldini olish.

Shu munosabat bilan Turkiy davlatlar makonida ekstremistik va radikal mafkuraga qarshi kurashish boʻyicha Harakatlar rejasini qabul qilish taklif etildi.

Oʻzbekiston, shuningdek, islomofobiyaning barcha koʻrinishlariga qarshi kurashishga qaratilgan yaqin muloqotni davom ettiradi.

Bundan tashqari, Tashkilot doirasida yoshlar oʻrtasida ekologik bilimlar boʻyicha qoʻshma chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhim ekanini taʼkidlandi.

Oʻzbekiston yetakchisi yana bir muhim masalaga eʼtibor qaratdi.

— Biz kelgusi yilda buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning 585 yilligi hamda ulugʻ Ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy tavalludining 885 yilligini keng nishonlaymiz. Ana shu mumtoz siymolarning insonparvarlik, oʻzaro doʻstlik va birdamlik haqidagi gʻoyalari, bebaho adabiy merosini keng targʻib etish maqsadida “Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy ijodi — Turkiy dunyo maʼnaviy hayotida” mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya oʻtkazishni taklif etamiz, — dedi davlatimiz rahbari.

Yigʻilishda xorijiy davlatlar delegatsiyalari rahbarlari ham oʻzga chiqdi.

Sammit yakunida Tashkilotga aʼzo mamlakatlar oʻrtasidagi oʻzaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirishga qaratilgan qoʻshma qaror va hujjatlar toʻplamini qabul qilindi.

Shu bilan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Ozarbayjonga amaliy tashrifi yakunlandi.

Gabala xalqaro aeroportida oliy martabali mehmonni Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev kuzatib qoʻydi.

OʻZA

Nuqtayi nazar

Bugun ekologik muammolarni bartaraf etish har qachongidan koʻra dolzarb masalaga aylandi. Tabiiy resurslar taqchilligi, iqlim oʻzgarishi, choʻllanish va suv yetishmovchiligi global muammo sifatida nafaqat bir davlat, balki butun mintaq va insoniyat manfaatlariga daxldor masalalarni kun tartibiga olib chiqmoqda.

Ayniqsa, bu borada Oʻzbekistonning soʻnggi yillardagi qatʼiy pozitsiyasi va xalqaro maydondagi faol tashabbuslari xalqaro hamjamiyatda katta qiziqish uygʻotmoqda. Davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasida ham Orol fojiasining salbiy oqibatlari va ularni yumshatish boʻyicha amaliy ishlarga alohida toʻxtalib oʻtdi.

Global isish muammosi kuchayib, yogʻingarchilik kamayayotgan asrimizda Orol dengizini qutqarish tobora imkonsiz boʻlib bormoqda. Uning qurib qolgan qismida 5,5 million gektarli yangi tuzli choʻl paydo boʻldi. Choʻl ustida yiliga 90 kundan ortiq muddat chang boʻroni qoʻzgʻalib turadi. Natijada har yili 100 million tonnadan ortiq chang va zaharli tuz atmosferaga tarqaladi. Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish maqsadida dengizning qurigan tubidagi 2 million gektar maydonda choʻl oʻsimliklari ekildi. Rejaga koʻra, 2030-yilgacha bu hududning 80 foizi “yashil qoplama” bilan qoplanadi.

Orolboʻyida bugun “yashil belbogʻ”lar barpo etilmoqda, ekoturizm yoʻnalishlari ochilmoqda, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida har yili 200 million tupdan ortiq daraxt va koʻchat ekilyapti. Bu — chang boʻronlari, zaharli tuz va aerozollarning minglab kilometrarga tarqalishini kamaytirish, aholi salomatligini himoya qilish va tuproq degradatsiyasini toʻxtatishda eng samarali usuldir.

“Oʻzbekiston — 2030” strategiyasida Orolboʻyi hududidagi ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, Orol dengizi qurishi natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolarning salbiy taʼsirini yumshatishga doir chora-tadbirlar belgilangan. Ular ijrosi yuzasidan 2022-2025-yillarga moʻljallangan qator ishlar bajarildi. Xususan, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida har yili 200 million tup mevali va manzarali daraxt ekish yoʻliga qoʻyildi.



Eldor TULYAKOV,
“Taraqqiyot strategiyasi” markazi
ijrochi direktori

Hududda ekoturizm yoʻnalishlari ishlab chiqilib, ekolagerlar faoliyat boshladi. “Markaziy Osiyoda transchegaraviy tabiatni muhofaza qilish” mintaqaviy muloqoti tashkil etildi. I va II toifaga kiruvchi 189 ta yirik sanoat korxonasi va ularga tutash hududlarda 1 million 907 ming tup manzarali, mevali daraxt va buta koʻchati ekildi. Orol dengizining qurigan tubi va Orolboʻyi hududidagi jami 200 ming gektar maydonda “yashil qoplama” barpo etildi. Jumladan, Qoraqalpogʻiston Respublikasi, Navoiy, Buxoro va Xorazm viloyatlaridagi 215 ming gektar yerda himoya oʻrmoni hosil qilindi. Orol dengizining qurigan tubida oʻtgan davrda 82 million tup choʻl oʻsimligi koʻchati ekildi.

Ushbu tadbirlarni oʻtkazish uchun 7,4 ming tonnadan ortiq saksuvl va boshqa choʻl oʻsimliklari urugʻi tayyorlandi. Oʻrmonlashtirish ishlarini davom ettirish maqsadida har yili kamida 100 gektar maydonda saksuvl

IQLIM OʻZGARISHIGA QARSHI KURASHISH BOʻYICHA MUHIM TASHABBUSLAR

koʻchatzori tashkil etilmoqda. Bu ishlar nafaqat ekologik barqarorlikni taʼminlash, balki aholi salomatligini himoya qilish va tuproq degradatsiyasini ekcheklashda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Prezidentimiz suv resurslarini tejash, ulardan oqilona foydalanish masalasiga ham toʻxtalib oʻtdi. Oʻzbekiston tashabbusi bilan Suvni tejash boʻyicha butunjahon forumini tashkil etish rejalashtirilmoqda. Taʼkidlaganidek, toza ichimlik suv yetishmovchiligi faqat ekologik muammo emas, balki oziq-ovqat xavfsizligi, sanitariya, energiya taʼminoti va ijtimoiy barqarorlik bilan bogʻliq tizimli inqirozdir. Ushbu forum doirasida “yoʻl xaritasi” qabul qilinishi rejalashtirilmoqda. U suv muammosini global tahdid sifatida tan olib, aniq mexanizm va yechimlarni nazarda tutadi.

Tahlillarga koʻra, dunyo aholisining ikki milliarddan ortigʻi toza suvdan mahrum boʻlayotgani “domino effekti” sifatida qator muammolarni keltirib chiqaradi. Bu qishloq xoʻjaligida hosildorlikning pasayishi, sanoat va energetikadagi uzilishlar, aholi orasida kasallanish oʻsishi va majburiy migratsiya kabi



yoʻnalishlarda koʻzga tashlanadi. Markaziy Osiyo kabi suvga yuksak darajada bogʻliq mintaqalarda bu xavf yanada kengayishi mumkin.

Mintaqada kelib chiqishi mumkin boʻlgan ekologik muammolarning oldini olish va ularga

barham berish hamda qator global kelishuvlarga erishish boʻyicha mamlakatimiz xalqaro tadbirlarga mezbonlik qilib kelmogda. Xususan, shu yil aprelda I Samarqand xalqaro iqlim forumi oʻtkazilgani fikrimiz dalildir. Ushbu forumda ham ekologik vaziyatni yaxshilash, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishga doir qator tashabbuslar ilgari surildi.

Har yili Navroʻz bayrami arafasida “Markaziy Osiyoning yashil belbogʻi” daraxt ekish aksiyasi yoʻliga qoʻyilishi, mintaqada suv tejovchi texnologiyalar boʻyicha qoʻshma dastur ishga tushirilishi, muzliklarni sunʼiy yoʻldosh orqali uzluksiz “Kopernik” monitoringini yoʻliga qoʻyish, shuningdek, Toshkentdagi “Yashil universitet” huzuridagi iqlim rezidensiyasini mintaqaviy ilmiy-ekspert platformasiga aylantirish kabi tashabbuslar kelgusida global ekologik muammolarning oldini olishga qaratilgan. Ushbu yoʻnalishlar forum “yoʻl xaritasi”ning amaliy ustunlariga aylansa, mintaqa miqyosida ham, global darajada ham tizimli natija beradi.

Prezidentimiz “iqlim migratsiyasi” masalasiga toʻxtalib, “Ekologik oʻzgarishlarning yana bir salbiy koʻrinishi — iqlim migratsiyasining kuchayib borayotganidir. Afsuski, ushbu yoʻnalishda aniq xalqaro mexanizmlar va huquqiy baza hanuzgacha yaratilmagan. Biz bu jiddiy masalada keng xalqaro sheriklik va muvofiqlashtirilgan siyosat yaratish boʻyicha Global pakt qabul qilish tarafdorimiz”, deya taʼkidladi.

Xalqaro baholashlarga koʻra, dunyoda 3,6 milliard kishi iqlim xavfi yuqori hududlarda yashaydi. Markaziy Osiyoda havo isishi surʼati global oʻrtacha haroratdan ikki baravar tez. Favqoltda issiq kunlar koʻpaydi, muzliklar maydoni uchdan birgacha qisqardi.

Birgina Amudaryo — Sirdaryo havzalaridagi suv taʼminoti pasayishi 2050-yilga borib mintaqaviy YIMga jiddiy zarba berishi mumkin. Bu sharoitda millionlab odam ish, suv va qulay iqlim izlab koʻchishga majbur boʻladi.

Shu munosabat bilan Prezidentimiz iqlim migratsiyasi boʻyicha Global paktini qabul qilish tashabbusini ilgari surdi. Bu hujjat iqlim sababli koʻchgan shaxslarning huquqiy maqomini aniqlash, davlatlar oʻrtasida yuklamani adolati taqsimlash va moliyaviy mexanizmlarni shakllantirish kabi masalalarni tartibga solishda muhim oʻrin tutadi.

Oʻzbekistonning amaldagi ishlari, xususan, suvni tejash texnologiyalari, infratuzilmani modernizatsiya qilish, mintaqaviy hamkorlik tashabbuslari ushbu pakt uchun tayyor platforma vazifasini bajaradi. Eng muhimi, pakt inson qadriini himoya qilishni markazga qoʻyadi.

Bugun iqlim migratsiyasi masalasiga kunning dolzarb vazifasi sifatida siyosiy eʼtibor, aniq meʼyorlar va moliyaviy mexanizmlar bilan javob berilmasa, ekologik xavflar kun kelib ijtimoiy inqirozga aylanishi mumkin. Shuning uchun ham Global paktini qabul qilish kechiktirib boʻlmaydigan masaladir.

Umuman olganda, Oʻzbekiston ekologik muammolarning oldini olish va barham berish boʻyicha oʻziga xos yondashuvni tanlagan. Bu yondashuv hududiy ekotizimlarni tiklash — Orolboʻyida yashil qoplama va oʻrmonlar barpo etish, suvni oqilona boshqarish — suv tejovchi texnologiyalar, infratuzilmani modernizatsiya qilish, global sheriklik, insoniy xavfsizlikni taʼminlash — iqlim migratsiyasi boʻyicha Global pakt hamda xalqaro hamkorlik orqali ekologik vaziyatni yaxshilash kabi jihatlarini qamrab oladi.



Boshlanishi 1-betda

“Yana bir muhim yo‘nalish — gender siyosati. Mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayoti va tadbirkorlik sohasida xotin-qizlarning rolini bundan buyon ham mustahkamlashni maqsad qilganmiz. Keng mintaqamiz miqyosida esa Osiyo xotin-qizlar forumini doimiy platformaga aylantirib, muntazam o‘tkazib borish tarafdorimiz”, dedi davlatimiz rahbari.

Buso‘zlaraslidamamlakatimizdakehayotgan islohotlar ruhini, Konstitutsiyamizdagi normalar mohiyati va davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini qamrab oladi. Chunki gender tenglik masalasi endi faqat ichki siyosat emas, balki mintaqaviy hamkorlik va xalqaro nufuz bilan ham uzviy bog‘liq.

Shu ma‘noda, yangi O‘zbekistondagi konstitutsiyaviy islohotlar va davlat dasturlari Prezidentimizning BMT minbarida bildirgan tashabbusi bilan uyg‘undir. Demak, milliy siyosat va global tashabbuslar bir-birini to‘ldirmoqda.

Bosh qonunimizda ham “Avval — inson, keyin — jamiyat va davlat” degan g‘oya asosiy yo‘nalish sifatida belgilangan. Bu esa, eng avvalo, inson huquq va erkinliklarini ta‘minlashdagi yangi bosqichni anglatadi.

Konstitutsiyaviy normaga ko‘ra, davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat va davlat boshqaruvida, iqtisodiy, ijtimoiy hayotining barcha sohasida teng huquq hamda imkoniyatlarni kafolatlaydi. Bu esa ijtimoiy adolatni ta‘minlashdagi katta qadamdir.

Konstitutsiyaga kiritilgan yana bir muhim qoida homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ularning ish haqini kamaytirish yoki ishdan bo‘shatish taqiqlanishidir. Bu norma ayollarning mehnat bozorida diskriminatsiyaga duch kelishiga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan.

Shu bilan birga, yangi qonuniy asoslar otalik institutini muhofaza qilishni ham nazarda tutadi. Konstitutsiyada ilk bor “Onalik, otalik va bolalik davlat muhofazasida” degan qoida belgilab qo‘yildi. Bu nafaqat ayollarning, balki ota sifatida erkaklarning ham oilaviy mas‘uliyati va huquqlari davlat tomonidan e‘tirof etilishini anglatadi.

Umuman olganda, ayollar va erkaklar tengligining Konstitutsiya darajasida mustahkamlanishi jamiyatda yillar davomida shakllanib qolgan stereotiplarni yo‘qqa chiqarishga qaratilgan. “Ayol uyda o‘tirishi shart”, “ayollar siyosatga aralashishi mumkin emas” kabi qarashlar endi qonun normalariga mutlaq zid hisoblanadi.

Shuningdek, 2030-yilga qadar boshqaruv lavozimlarida xotin-qizlar ulushini kamida 30 foizga yetkazish rejalashtirilgan. Bu maqsad ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy faolligni oshirish, davlat boshqaruvida gender mutanosibligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Yangi O‘zbekistondagi islohotlar iqtisodiyotni erkinlashtirish, xususiy tashabbuslarga yo‘l ochish, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan. Bu jarayonda ayollar ishtirokisiz to‘liq taraqqiyotga erishib bo‘lmaydi. Chunki mamlakat aholisining yarmini tashkil etuvchi xotin-qizlarning iqtisodiy faolligi milliy barqarorlik va yuksalishning asosiy kafolatidir.

O‘tmishda ayollar asosan uy-ro‘zg‘or ishlari yoki muayyan kasblar bilan chegaralangan bo‘lsa, bugun ular kichik biznes, xizmat ko‘rsatish, qishloq xo‘jaligi, startap va eksport sohaslarida ham faol ishtirok etmoqda.

So‘nggi yillardagi muhim tashabbuslardan biri “Ayollar daftari” tizimining joriy etilganidir. Bu tizim orqali ishsiz, ijtimoiy himoyaga muhtoj, turmushda qiyin ahvolda tushgan xotin-qizlarning manfaatlarini davlat e‘tiboriga olindi.

Natijada yuz minglab xotin-qizlarga mehnat bozorida imkoniyatlar yaratildi, ularga qayta tayyorlash kurslari, bepul kasb-hunar o‘rgatish dasturlari taklif etildi. Minglab oilalarning ijtimoiy ahvoli barqarorlashdi, yuzlab kichik biznes subyektlari ochildi. Bu mexanizmning ahamiyati shundaki, u nafaqat ijtimoiy yordam, balki iqtisodiy mustaqillikka erishish vositasi sifatida xizmat qilmoqda.

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda moliyaviy resurslar muhim o‘rin tutadi. Shu maqsadda xotin-qizlarga imtiyozli kredit, subsidiya va grantlar ajratish tizimi yo‘lga

Malika QODIRXONOVA,
Oliy Majlis Senati a‘zosi,
Sohibjamol JUMAYEVA,
Markaziy bankning gender tenglik
masalalari bo‘yicha maslahat
kengashi raisi o‘rinbosari

qo‘yildi. Masalan, tijorat banklari orqali garovsiz mikrokredit berish amaliyoti joriy qilindi. Bu esa kichik biznes yoki oilaviy tadbirkorlikni boshlamochi bo‘lgan ko‘plab ayollar uchun katta imkoniyatlar eshigini ochdi. Ular orasida qishloq xo‘jaligi, uy-ro‘zg‘or mahsulotlari ishlab chiqarish, tikuvchilik, oziq-ovqat sanoati va xizmat ko‘rsatish sohalari yetakchi bo‘ldi.

Davlat subsidiyalari va xalqaro grantlar hisobidan ayollar uchun startap dasturlari amalga oshirildi. Bu loyihalar orqali ko‘plab innovatsion g‘oyalar hayotga tatbiq etildi.

Ayollar tadbirkorligining rivojlanishi nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarni oshiradi, balki keng ma‘noda ijtimoiy barqarorlikka ham xizmat qiladi. Chunki moliyaviy mustaqillikka erishgan ayol oiladagi nufuzini mustahkamlaydi, farzandlar tarbiyasiga yanada ko‘p vaqt sarflaydi, jamiyatda faolligini oshiradi.

Jahon tajribasida ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash barqaror rivojlanishning eng muhim omillaridan biri sifatida e‘tirof etilgan. Yevropa mamlakatlariida imtiyozli kreditlar, AQSHda ayollar biznesi uchun alohida agentliklar, Yaponiyada esa oilaviy tadbirkorlikka soliq imtiyozlari keng qo‘llanadi.

Mamlakatimiz tajribasi esa “Ayollar daftari”, garovsiz kreditlar va maxsus davlat dasturlari bilan ajralib turadi. Bu model milliy an‘analardan va zamonaviy bozor mexanizmlari uyg‘unligini ifoda etadi.

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish shunchaki iqtisodiy dastur emas. U jamiyatning ma‘naviy yuksalishi, ijtimoiy barqarorligi va oilalar farovonligi asosidir.

Yangi O‘zbekistonda xotin-qizlar iqtisodiy salohiyati tobora ortib, nafaqat oila, balki



davlat modeli nafaqat ichki islohotlarda, balki xalqaro miqyosdagi nufuzini mustahkamlashda ham muhim omil ekanini ko‘rsatadi.

Ijtimoiy davlat konsepsiyasi yangi O‘zbekiston taraqqiyotining asosiy g‘oyaviy ustunidir. Bu g‘oyaning amaldagi ifodasi esa, avvalo, xotin-qizlar huquq va imkoniyatlarini kafolatlash, turmush darajasini oshirish, iqtisodiy va siyosiy hayotdagi ishtirokini kengaytirishda namoyon bo‘lmoqda.

Zero, ijtimoiy davlatning kuch-qudrati moliyaviy resurslarda emas, balki odamlarning hayotidagi real o‘zgarishlarda, xususan, ayollarning baxti va farovonligida ko‘rinadi.

Yangi O‘zbekistondagi gender siyosatining muhim jihatlaridan biri uning faqat siyosiy yoki ijtimoiy sohalarga emas, balki moliyaviy va iqtisodiy tizimlarga ham izchil tatbiq etilayotganidir.

Majoziy ma‘noda moliya tizimi jamiyatning iqtisodiy quvvati va barqarorligini ta‘minlaydigan markaziy asab tizimiga o‘xshaydi. Agar bu tizimda tenglik, adolat va imkoniyatlar barobarligi ta‘minlanmasa, iqtisodiyotdagi barqarorlik va jamiyatdagi ishonch ham zaiflashadi.

Xususan, Markaziy bankda qabul qilingan gender siyosati BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari va Xalqaro mehnat tashkilotining asosiy konvensiyalari bilan uyg‘un holda ishlab chiqilgan. Ya‘ni SDG-5 — Gender tenglikka erishish maqsadiga to‘liq muvofiqdir.



mamlakat taraqqiyotining ham yetakchi quvvatiga aylanib bormoqda. Davlat tomonidan yaratilgan imkoniyatlar esa bu jarayonni barqaror va tizimli yo‘nalishga aylantirmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning eng muhim yangiliklaridan biri O‘zbekistonning ijtimoiy davlat sifatida belgilanganidir. Bu ta‘rif davlatning asosiy vazifasi huquqiy kafolatlar bilan cheklanmay, har bir fuqaroga munosib turmush va barobar imkoniyatlar yaratishdan iborat ekanini anglatadi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ijtimoiy davlat g‘oyasi markazida, avvalto, xotin-qizlar va oila institutini qo‘llab-quvvatlash masalasi turadi. Chunki ayolning jamiyatdagi o‘mi qanchalik mustahkam bo‘lsa, oila shunchalik barqaror, davlat esa qudratli bo‘ladi.

Ijtimoiy davlat konsepsiyasida adolat tushunchasi muhim o‘rin tutadi. Ayollarning turmush darajasi, sog‘lig‘i, ta‘lim olishi, mehnat bozoridagi mavqei va siyosiy faolligi ijtimoiy adolat mezonlaridir.

Islohotlar natijasida ayollar uchun yaratilgan imkoniyatlar ko‘plab ijobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Minglab ayollar uy-joy bilan ta‘minlandi, farzandlari bog‘cha yoki maktabga joylashtirildi, ko‘plab ayollar tadbirkorlikka jalb etildi.

O‘zbekistonning ijtimoiy davlat sifatida ayollarni qo‘llab-quvvatlash borasidagi islohotlari xalqaro maydonda ham e‘tirof etilmoqda. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari orasida beshinchi maqsad gender tenglikka erishishdir.

Mamlakatimiz bu maqsadni milliy dasturlar orqali izchil amalga oshirmoqda. Natijada O‘zbekiston Ochiq gender ma‘lumotlari indeksida mamlakatlar orasida yetakchi 20 talikka kirdi. Bu esa O‘zbekistonning ijtimoiy

Dunyoda gender tenglik masalasi so‘nggi o‘n yilliklarda barqaror rivojlanishning asosiy mezonlaridan biriga aylandi. Yevropa Ittifoqi davlatlarida qonunchilik va siyosiy institutlarda xotin-qizlar ishtirokini kafolatlovchi “kvota tizimi” keng qo‘llanadi. Masalan, Shvetsiya, Norvegiya va Finlyandiya parlamentida ayollar ulushi 40-45 foizga yetgan.

AQSH tajribasida esa ayollarning iqtisodiy salohiyatini qo‘llab-quvvatlash uchun alohida institutlar ishlab chiqilgan. Masalan, “Women’s Business Centers” tarmog‘i orqali millionlab ayol tadbirkorlar bevosita davlat yordami va maslahatlardan foydalanmoqda.

Yaponiya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda esa ayollarning ishi va oilaviy hayotidagi muvozanatni ta‘minlashga katta e‘tibor beriladi. “Work-life balance” dasturlari orqali ish vaqtidagi yangiliklar, masofaviy mehnat imkoniyati, bola tarbiyasi uchun qo‘shimcha imtiyozlar keng joriy qilingan.

BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari orasida beshinchi maqsad gender tenglikka erishish sifatida belgilangan. BMTga a‘zo davlatlar bu maqsadni milliy siyosat va dasturlar orqali amalga oshirish majburiyatini olgan.

Shuningdek, Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan qabul qilingan konvensiyalarda ayollarning mehnat huquqlarini ta‘minlash, kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, ish haqida tenglik kabi masalalar qat‘iy belgilab qo‘yilgan. Yevropa Ittifoqi davlatlari va AQSHda moliya institutlariga ham gender tenglik standartlariga amal qilish majburiyati yuklatilgan.

Shu ma‘noda, davlatimiz rahbarining BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasida ilgari surgan tashabbusi — Osiyo xotin-qizlar forumini doimiy platformaga aylantirish g‘oyasi tarixiy ahamiyatga ega yangi bosqichdir. Bu g‘oya nafaqat milliy yoki mintaqaviy darajada, balki butun jahon miqyosida ayollar salohiyatini jamiyat taraqqiyoti va global integratsiya jarayonlariga qo‘shish uchun ulkan imkoniyat ochadi. Ushbu platforma Osiyo davlatlariga ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlikning yangi yo‘nalishlarini belgilash, ayollarning beqiyos kuch va salohiyatidan foydalanish imkonini berib, jahon hamjamiyati oldida O‘zbekiston tashabbusining ilg‘or va hayotiy ahamiyatga ega ekanini namoyon etadi.

Dunyo tajribasini O‘zbekiston amaliyoti bilan solishtirsa, milliy modelning qator afzalliklarini ko‘rish mumkin. Jumladan, Yevropa va AQSHda asosiy e‘tibor siyosiy va iqtisodiy tenglikka qaratilgan bo‘lsa, O‘zbekistonda ijtimoiy himoya va oilaning farovonligi alohida ustuvorlik sifatida belgilangan. Yaponiya va Janubiy Koreyada “ish va hayot muvozanati” dasturlari mavjud bo‘lsa, O‘zbekistonda bu tamoyil yangi tahrirdagi Konstitutsiyada huquqiy kafolat darajasiga ko‘tarilgan. Ko‘p davlatlarda gender siyosatini alohida tashkilotlar amalga oshira, O‘zbekistonda bu jarayon barcha davlat idoralari faoliyatiga integratsiya qilinmoqda.

Bugun jahonda kechayotgan global o‘zgarishlar, muammo va xatarlar davlatlarning alohida-alohida emas, balki uyg‘un harakat qilishi, tajriba almashishi va muloqotning yangi mexanizmlarini yo‘lga qo‘yishini taqozo etmoqda. Ayniqsa, gender siyosatini



rivojlantirish va xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini mustahkamlash masalasida bu yo‘nalish juda muhim ahamiyatga ega. 2020-yilda O‘zbekiston tashabbusi bilan tashkil etilgan Markaziy Osiyo davlatlari yetakchi ayollari muloqoti bu boradagi ilk qadam bo‘ldi. Ushbu platforma qisqa muddatda mintaqada gender tenglik va xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishda ochiq muloqot va konstruktiv hamkorlik mexanizmlarini yaratdi.

Bu format doirasida zo‘ravonlikka qarshi qonuniy asoslarni takomillashtirish bo‘yicha tajriba almashish, qo‘shma biznes loyihalarini amalga oshirish, mintaqaviy xavfsizlik va ekologiya masalalarini birgalikda ko‘rib chiqish kabi amaliyotlar yo‘lga qo‘yildi. Natijada Markaziy Osiyoda xotin-qizlarga oid



dolzarb masalalar bo‘yicha umumiy qarash va birgalikdagi harakat tizimi shakllandi.

Parlamentlararo ittifoq doirasida bu ijobiy tajribani boshqa mintaqaviy guruhlar doirasida ham joriy qilish taklif etildi. Bu orqali turli mintaqalarda ayollar faolligini oshirish, ularning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki kengaytirildi. O‘zbekiston bu yo‘nalishda o‘z tajribasini o‘rtoqlashishga tayyor.

Xalqaro tajribaga ko‘ra, gender tenglikka erishish shunchaki inson huquqlari siyosati emas, balki ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omilidir.

O‘zbekiston o‘z tajribasini jahon amaliyoti bilan uyg‘unlashtirar ekan, milliy modelning afzalliklarini saqlab qolishga ham e‘tibor qaratmoqda. Zero, ayollarning huquq va imkoniyatlari ta‘minlangan mamlakat barqaror taraqqiyot sari ishonchli qadam tashlaydi.

Yurtimizda ushbu yo‘nalishdagi islohotlar yangi taraqqiyot strategiyasi markazida inson qadri turishdan dalolat bermoqda. Bu qadriyatning eng muhim yo‘nalishlaridan biri gender tenglikni ta‘minlashdir. Chunki xotin-qizlar va erkaklar imkoniyatlarining mutanosibligisiz barqaror iqtisodiy o‘sinh, samarali ijtimoiy siyosat va demokratik taraqqiyot haqida so‘z yuritish mumkin emas.

Shuning uchun ham davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ayollarni qo‘llab-quvvatlash, ular uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish masalasi belgilab qo‘yildi.

Gender tenglik siyosati moliya tizimida ham institutsional asosda amalga oshirilayotgani mamlakatdagi islohotlarning chuqurligini ko‘rsatadi. Markaziy bank tomonidan ishlab chiqilgan “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar siyosati”

bu sohadagi ilg‘or qadamlardan biri bo‘lib, xalqaro standartlarga to‘liq uyg‘un holda joriy qilinmoqda.

Bu esa, o‘z navbatida, mamlakatimiz moliya tizimining xalqaro obro‘-e‘tiborini oshirib, davlatning jahon miqyosidagi pozitsiyasini mustahkamlaydi. Zero, xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘mi mustahkam bo‘lgan mamlakatda millatning kelajagi ham ravshan bo‘ladi. Yangi O‘zbekiston aynan shunday yo‘ldan bormoqda.

Gender tenglikni ta‘minlashning eng samarali yo‘li bu — ta‘lim orqali teng imkoniyatlar yaratishdir. Chunki ta‘lim jamiyatning taraqqiyot lokomotivi, barcha sohada ayollar va erkaklar imkoniyatlarini belgilab beruvchi asosiy omildir.

Yurtimizda oxirgi yillarda ayol-qizlarning ta‘limdagi ishtiroki sezilarli darajada kengaydi. Maktabdan tortib oliy ta‘lim muassasalarigacha qizlar uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda. Natijada ta‘lim tizimida qizlar ulushi keskin oshib, ayrim yo‘nalishlarda ularning ishtiroki sezilarli darajada ortdi.

Xotin-qizlarning matematika, fizika, axborot texnologiyalari kabi sohalarga qiziqirish maqsadida maxsus grantlar, stipendiyalar va dasturlar amalga oshirilmoqda. “TechnoGirls Uzbekistan” va “SheCodes” loyihalarini qizlarni dasturlash, robototexnika va innovatorlik sohaslariga jalb etishda samarali bo‘lmoqda.

UNESCO, BMTTD va Jahon banki bilan hamkorlikda xotin-qizlarning ta‘lim olishini rag‘batlantiruvchi loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, qishloq hududlarda qizlar uchun onlayn ta‘lim dasturlari, masofaviy kurslar ochilmoqda.

Gender tenglik masalasini faqat qonunchilik yoki davlat dasturlari orqali hal qilish mumkin emas. Bu jarayon jamiyat ongi va ma‘naviy muhiti bilan chambarchas bog‘liq. Agar jamoatchilik ongida ayol va erkak teng huquqligini qadriyat sifatida shakllansa, islohotlar samarasi yanada yuqori bo‘ladi.

Bu borada jamoatchilik fikri so‘nggi yillarda sezilarli darajada o‘zgardi. Ayniqsa, yoshlar orasida ayollarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi ishtirokiga ijobiy munosabat kuchayib borayotir. Tadiqotlarga ko‘ra, yosh avlodning katta qismi gender tenglikni demokratik jamiyatning tabiiy sharti sifatida qabul qiladi. Aholining katta qismi ayollarning davlat boshqaruvida faol ishtirokiga ijobiy qaraydi.

Ayolning oiladagi o‘rni, ona sifatidagi mas‘uliyati va jamiyatdagi nufuzi tenglik masalasini yanada keng qamrovli ma‘noda talqin etishni talab qiladi. Gender tenglik ayolni oiladan uzoklashirish emas, balki uning imkoniyatlarini kengaytirish, oila va jamiyat manfaatlariga ko‘proq hissa qo‘shishga undaydi. Shu bilan birga, xotin-qizlar huquqlarini himoya qiluvchi, ularning imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan nodavlat tashkilotlar faoliyati tobora kuchaymoqda. Ular jamoatchilik ongini o‘zgartirish, huquqiy madaniyatni oshirish va turli hududlarda ayollarga amaliy yordam ko‘rsatishda muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, gender tenglik va ayollar huquqlarini ta‘minlash masalasi xalqaro munosabatlarda alohida ustuvor yo‘nalish sifatida qaralayotgan bir davrda O‘zbekistonning bu boradagi takliflari global rivojlanish jarayonlariga hamohangdir. Prezidentimizning nutqida ayollarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda faol ishtirokini kengaytirishga doir fikrlari BMTning 2030-yilgacha barqaror rivojlanish maqsadlari bilan chambarchas bog‘liq.

Shu orqali O‘zbekiston o‘zining tashqi siyosatida “inson qadri — oliy qadriyat” tamoyilini amalda namoyon etdi. Ushbu tashabbus xalqaro tashkilotlar, davlatlar va mintaqaviy tuzilmalarning qo‘shma harakatlarini uyg‘unlashtirishga qaratilgani bilan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimizning taklifi xalqaro hamjamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlangani O‘zbekistondagi demokratik islohotlar va gender tenglik siyosatining jahon andozalariga mosligini yana bir bor namoyish qildi. Bu esa mamlakatimizning global siyosiy maydondagi nufuzini orttirish bilan birga ichki islohotlarning samaradorligiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

YANGI AVLOD DRONLARI

O‘ZBEKISTON OSMONIDA O‘ZIGA XOS INNOVATSION SHOUNI NAMOYISH ETDI

Suhbat

Mamlakatimiz mustaqilligining 34 yilligiga bag‘ishlangan asosiy tadbir — “Yangi O‘zbekiston” bog‘ida bo‘lib o‘tgan tantanali marosim bu gal yurtdoshlarimizda har yilgidan o‘zgacha taassurot qoldirgani hamon yodimizda. Shodiyonani bevosita katta sahna atrofida yoki ekran ortida kuzatar ekanmiz, haqiqatan, bu yilgi bayram tadbiri boshqalaridan farq qilgani, qo‘shimcha yorqinlik va detallari bilan ajralib turganiga guvoh bo‘ldik. Kimdir sahnadagi vatanparvarlik chiqishlarini, kimdir o‘ziga xos bezaklarni, yana kimdir tadbir ssenariysini e‘tirof etdi.



O‘zbekiston xaritasi, bayrog‘i, futbol to‘pi tasvirlari 2D va 3D animatsiyalar bilan uyg‘unlashtirildi. Ayniqsa, parvoz qilayotgan humo qushi tasviri tomoshabinlarni o‘zgacha to‘lqinlantirdi. Boisi, ozod parvoz qilayotgan qush mustaqillikning va kelajakka intilgan yangi avlodning ramzi sifatida namoyon bo‘ldi. Bu tasvirlar yerdan 150 metr balandda, o‘lchami uzunasiga 600 metr, eniga 350 metr fazoviy maydonda tashkil etildi.

Ko‘pchilik dronlar yordamida tasvir yaratish qanchalik murakkab ekaniga qiziqadi. Albatta, bu oson jarayon emas. Har bir shaklni tayyorlash ustida bittadan to‘rttagacha dizayner va muhandis mutaxassis ishlaydi. Ular tasvir ssenariysini ishlab

beradi. Davlat ramzlari, milliy qahramonlar va madaniy obrazlarni zamonaviy texnologiyalar orqali ko‘rish odamlarga o‘zgacha ruhiy ta’sir ko‘rsatadi. Faxr, vatanparvarlik kabi ezuq tuyg‘ularni uyg‘otadi.

Shu bilan birga, dron-shoular innovatsion imkoniyatlarni namoyish etish vositasi hamdir. Zamonaviy innovatsion yondashuv yurtimizning texnologik salohiyati hamda milliy imijini namoyish qiladi. Bu sayyohlar va investorlar uchun ham jozibadorlikka ega.

Umuman, dron-shoular ommaviy tadbirlarda minglab tomoshabinlarda ko‘tarinki ruhiyatni, yuqori darajadagi e‘tirofni, joyi kelganda,

dron-shou o‘tkazilgandan keyin tashkilotimizga murojaat qiluvchi yoshlar soni keskin ortadi. Bu murojaatlar “Dronlarni boshqarish operatorligiga o‘qisa bo‘ladimi, dronlarni loyihalash, boshqarish bo‘yicha qaysi oliy ta’lim muassasasida tahsil olish mumkin?” kabi savollardan iborat. Ulardan dron-shouni ko‘rgan yoshlarda ushbu texnologiyaga qiziqish paydo bo‘lganini tushunish qiyin emas.

— Dron nomi bilan ataladigan ixchamgina o‘zi uchar apparatlarning imkoniyatlari boshqa yo‘nalishlarda ham kishilarni hayratga solishda davom etmoqda. Jahonda deyarli barcha sohada dronlardan foydalanilayotib. Mamlakatimiz amaliyotida bu qurilma qanchalik zarur? Hozirgacha qaysi soha va yo‘nalishlarga kirib bordi?

— Bu qurilma ilk bor o‘tgan asrda harbiy maqsadlarda foydalanish uchun yaratilgan bo‘lsa, hozirgi kunga kelib uni qo‘llash yo‘nalishlari chegara bilmaydi. Gap bizning asrimizga kelib paydo bo‘lgan kvadrokopterlar, ya‘ni oddiy fuqarolar ham foydalana oladigan hozirgi ko‘rinishdagi zamonaviy dronlar haqida boryapti. Ular shu qadar tez ommalashtirdi, qisqa vaqtda ko‘plab tarmoqlarga kirib bordi. Ayniqsa, bu turdagi qurilmalar takomillashib, hajmi kichrayib borishi bilan dunyo davlatlarida ularga qiziqish ortdi. Hozir dronlarga eltib berish xizmatlaridan tortib, xarita tuzuvchi, yer ostidagi kommunikatsiyalarni monitoring qiluvchi, gaz magistrallarini tekshiruvchi, suv osti obyektlari, to‘g‘onlarni tadqiq etuvchi, chorva mollarini kuzatuvchi kabi vazifalar bemalol yuklatilayapti. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligida juda keng qo‘llanilmoqda. Yerlarni shudgor qilish, ekin ekishga tayyorlashdan tortib, ekinlarning unib qichishi, sug‘orish va vegetatsiya jarayonlari, ekinga suyuq va suspenziya holiday o‘g‘itlar va dori purkash, hosilni prognoz qilish va shu kabi maqsadlarda dronlarni qo‘llash respublikamizda ilk odimlarini boshlagan. Bu maqsadlarda foydalaniladiganlari agrodronlar deb yuritiladi.

O‘zbekiston amaliyotida bu qurilmaga talab yuqori. Mamlakatimizda uchuvchisiz, ya‘ni masofadan boshqariladigan uchish qurilmalaridan foydalanish 2014-yillardan boshlangan. Ammo ularning mahalliy bozorga faol kirib kelishi 2017-yilga to‘g‘ri keladi. Yurtimiz hududida, asosan, dronlarning multikopter guruhiga kiruvchi kvadrokopter (4 parakli) turi keng tarqalgan. Ixcham hajmi, operator boshqaruvi osonligi, optimallashgan konstruksiya va dizayn, aerodinamik qarshilikni to‘g‘ri taqsimlash kabi qulayliklari bois, aerotasvir va turli videokuzatuvlar jarayonlarida foydalaniladi. Qolaversa, sanoatning ko‘p tarmoqlarida shu turdagi dronlar asqatadi.

Hozir dronlardan geodeziya va yer monitoringida keng va samarali foydalanilayotir. Ushbu sohada vakolatli boshqaruv organi — Kadastr agentligi tasarrufidagi tashkilotlarda, hududiy tuzilmalarida turli rumumdagi yuzdan ortiq dron ish faoliyatida. Bu dronlar yordamida oldinlari bir geodezist 7-8 kunda bajargan ish bir kunda bajarilmoqda, o‘zboshimchalik bilan qurilgan bino-inshootlar ilgari noqonuniy obyekt qurib bo‘lingandan keyin aniqlangan bog‘liq, hozir dronlar yordamida poydevor qilish yoki yer tekislash ishlari boshlangandayoq aniqlash imkonlari bor. Shuningdek, relyefli xaritalar tuzishda avvallari geodezik lineyakalar bilan

beruvchi dronlar ustida tadqiqotlar o‘tkazilyapti. So‘nggi yillarda qurilish sohasida loyihalar monitoringi, turizm va ommaviy tadbirlarda ham dronlar keng qo‘llanilmoqda. Shu bilan birga, favqulodda holatlarda ahvolni tezkor baholash va hududlarni kuzatishda ularning samaradorligi yuqori.

Umuman, dronlardan istalgan sohada foydalanish mumkin, faqat tegishli tartib va talablarga rioya etgan holda. 2021-yil 31-avgustda Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan nizomda ushbu turdagi qurilmalardan foydalanish va ro‘yxatdan o‘tkazish qoidalarini keltirilgan. Hozirgi kunda O‘zbekistonda dron qurilmalarini ro‘yxatdan o‘tkazish ishlari Davlat havo harakati xizmati va ichki ishlar tizimi orqali tartibga solinadi. Bu qat‘iy qonunchilik talablari asosidagi ish. Jarayonda qurilma to‘g‘risidagi texnik ma‘lumotlar taqdim etilgach, xavfsizlik talablariga muvofiqlik tekshiriladi va tegishli organlar tomonidan ruxsatnoma beriladi. Mazkur tartibdan ko‘zlangan asosiy maqsad havo makonida xavfsizlikni ta‘minlash va dronlardan samarali hamda qonuniy foydalanishdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda dronlardan ko‘proq yuridik shaxslar — tabdirkorlik subyektlari, ilmiy va ta‘lim muassasalari, davlat tashkilotlari foydalanadi. To‘g‘ri, hozir ularning jismoniy shaxslar ham shaxsiy maqsadlarda foydalanishi mumkin, faqat bu belgilangan tartib-qoidalar hamda rasmiy ruxsatnoma olingan holda amalga oshiriladi. Boisi, dronlar xavfsiz texnika qatoriga kirsada, smartfon kabi oddiy qurilma emas. Nafaqat bizda, balki dunyoda ularni qo‘llashga oid tartib va talablar bor. Bu, albatta, xavfsizlik masalalariga borib taqaladi.

Ayrim davlatlar, masalan, AQSH, Yaponiya va Yevropa mamlakatlarida kichik turdagi dronlarni oddiy fuqarolar ham maxsus talablarisiz sotib olishi mumkin. Biroq katta hajmli va strategik turdagi qurilmalar butun dunyoda qat‘iy nazorat ostida. Yurtimizda ham dronlarning muayyan turlari — umumiy massasi 250 grammagacha bo‘lgan, tasvirlama dronlar allaqachon sotuvda mavjud.

— Balki dronlar o‘zimizda ishlab chiqarilsa, oddiy odamlarning ham ularidan foydalanish imkoniyati kengayar? Umuman, yurtimizda uchuvchisiz uchish apparatlarini mahalliyashtirish, ularning sohalarni raqamlashtirishda foydalanish bo‘yicha qanday ishlar qilinayapti?

— Dronlarni mahalliy sharoitda ishlab chiqarishga qaratilgan harakatlar allaqachon boshlangan. Geoinnovatsiya markazida ham gibrid, multikopter turdagi dronlarni ishlab chiqarish, ularning akkumulyatorlarini quvvatlash va optimalashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar bajarilayapti. Startap tashabbuslar va xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikdagi loyihalar amalga oshirilmoqda. Hatto qurilmaning ayrim turlari mahalliy sharoitda yaratilib, tajriba-sinov jarayonlaridan o‘tkazilmoqda.

Dronlar oddiy va oson tuzilmali qurilma emas. Uning murakkab mexanizmi uzoq muddatli tadqiqot olib borishni talab etadi. Qolaversa, ushbu apparatlarda aniqlik eng asosiy jihat bo‘lgani bois, uni tekzorlik bilan ishlab chiqarish yaramaydi. Shu sababli hozircha asosiy e‘tibor amaliyotda dronlarni samarali qo‘llash, mahalliy kadrlarni tayyorlash va texnologiyalar transferiga qaratilgan. Shuningdek, kichik turdagi prototiplar va yig‘ish ishlari amalga oshirilayotgani bu yo‘nalishdagi ilk qadamlardan hisoblanadi.

Biroq yaqin yillarda mahalliyashtirish masalasi raqamli iqtisodiyot, agrar soha va xavfsizlik sohalari uchun katta ahamiyatga ega bo‘lishi shubhasiz. Chunki bu yurtimizda jadal kechayotgan raqamlashtirish jarayonlarining bir qismi bo‘lib, qurilmaning zamonaviy imkoniyatlari uni yanada foydallashtiradi. Qolaversa, Taraqqiyot strategiyasida raqamli iqtisodiyotni asosiy drayver sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirish belgilangan. “Smart shahar” konsepsiyasidagi vazifalarni bajarishda ham dronlar muhim o‘rin tutadi. Shu maqsadda zamonaviy texnologik parklar, texnopolislar va yoshlar startaplari qo‘llab-quvvatlash orqali O‘zbekistonda dronlar industriyasini yo‘lga qo‘yish reja qilingan.

Bu yurtimizda dronlardan foydalanish tobora kengayib boradi degani. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligi, qurilish, transport logistikasi va xavfsizlik sohalariga kengroq kirib borishi ko‘zda tutilgan. Yaqin yillarda turli tarmoqlarda mahalliy dronlar xizmatidan foydalanilayotganiga guvoh bo‘lamiz. Qolaversa, yoshlarimiz orasida dronsozlik va robototexnikaga qiziqish ortib borayotgani, startaplar ko‘paygani kelajakda yangi yo‘nalishlar ochishiga ishonchimiz komil.

**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Iroda TOSHMATOVA
suhbatlashdi.**



Ayniqsa, bayram tadbiri davomida “Yangi O‘zbekiston” bog‘i markazidagi Mustaqillik monumenti tepasida dronlardan hosil qilingan turli tasvirlar ko‘pchilikning e‘tiborini tortdi.

Hatto dronlardan shu tarzda foydalanilib, osmonda o‘ziga xos shou yaratilgani tadbirning asosiy yangiligi sifatida tilga olinmoqda. Boisi, harakatlanuvchi tasvirlar ko‘pchilikni mahliyo qilib qo‘ydi. Bir vaqtning o‘zida tepaga minglab dron ko‘tarilib, ketma-ket turli tasvirlar hosil qilinganidan hayratlanganlar oz emas. Garchi asrimizning eng zamonaviy texnologiyalaridan biri bo‘lgan dronlarga ancha ko‘nikkan bo‘lsak-da, ularning mamlakatimiz amaliyoti, xususan, katta tadbirlarda faol qo‘llanilayotgani qiziqishimizni oshirayotir.

Shu o‘rinda yurtimiz mustaqilligi sanasiga bag‘ishlangan tadbir davomida nechta drondan foydalanilgani, bizni hayratga solgan tasvirlar qanday yaratilgani, ushbu qurilmalarni boshqarish texnikasi bilan bog‘liq savollar ham paydo bo‘ldi. Ularga javob olish maqsadida bevosita yurtimizda dron qurilmalaridan foydalanish bo‘yicha qator vazifalarni amalga oshirib kelayotgan tashkilot mutasaddilariga yuzlandik. **Kadastr agentligi direktori o‘rinbosari, “Geoinnovatsiya markazi” DUK direktori Abdushukur ABDULLAYEV** bilan suhbatimiz ana shu dron-shou borasidagi savollardan boshlandi.

— Haqiqatan, istiqlolimizning 34 yillik shodiyonani tantanasi o‘ziga xos shukuhda o‘tdi. Bir necha yillardan buyon ushbu sana munosabati bilan o‘tkaziladigan bosh tadbirda dronlardan foydalanish an‘anaga aylandi. Bu yilgisi esa ko‘lam va rang-baranglik jihatidan sezilarli farq qilganini yurtdoshlarimiz ham kuzatdi. Ya‘ni mustaqillik ayyomi munosabati bilan O‘zbekistonda ilk bor tarixiy ko‘lamdagi, eng so‘nggi V4 innovatsion dron-shou tashkil etildi. Buni yurtimizda texnik innovatsiyalarni qo‘llash yo‘lida tashlangan yangi qadam deyish mumkin.

To‘g‘ri, Kadastr agentligining Geoinnovatsiya markazi ko‘p yillardan buyon dron-shou tadbirlarini o‘tkazib kelmoqda. Ammo O‘zbekiston mustaqilligining 34 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan katta tadbirda namoyish etilgan dron-shou kompleksi 2018-yildan to shu kungacha o‘tkazilgan 45 dan ortiq dron-shoudan tubdan farq qiladi.

Birinchidan, yangi dron-shou kompleksi 4-avlod texnologiyalariga mansub (oldingi davrdagi dronlar 2- va 3-avlod). Bu yangi avlod dronlari favqulodda nosozlik kelib chiqqanda oldingilari kabi qetlab tushmaydi, balki o‘zi uchib chiqib ketgan yacheykaga qaytib kelib tushadi va uning o‘rnini xazirada turgan boshqa dron egallaydi. Agar nosozlik kelib chiqqan droning o‘z yacheykasiga qaytib borish imkonlari bo‘lmasa, avtomatik tarzda uning parashyut qurilmasi ishgah tushib, xavfsiz holatda yerga qo‘nadi.

Ikkinchidan, oldingi avlod dronlari qat‘iy belgilangan, tomonlari 1 metrdan iborat bo‘lgan yacheykalarda joylashtirilgan bo‘lsa, yangi avlod dronlari o‘zlari saqlanadigan va transportirovka qilinadigan qutlarning o‘zidan uchib chiqib, shou tugagach, yana shu qutlarga, aynan o‘zi turgan yacheykaga qaytib tushadi.

Uchinchidan, oldingi avlod dronlarining har biri xizmat ko‘rsatuvchi mutaxassislar tomonidan qo‘l boshqaruvida kalibrovkadan (sozlashdan) o‘tkazilardi. Bunda mutaxassis dron turgan joyda tikka turgan holda uni o‘zi bilan birga aylantirib turar va boshqaruv tizimida shu dron ko‘ringunga qadar sozlashni davom ettirardi. Albatta, bu juda ko‘p mehnat va vaqt resurslarini talab etadi.

To‘rtinchidan, yangi tizim dronlariga xizmat ko‘rsatuvchi mutaxassislar normasi har 100 ta dronga bir nafarni tashkil etadi. Oldingi avlod dronlarida esa bu ko‘rsatkich har 15 ta dronga bir nafardan to‘g‘ri kelardi.

Beshinchidan, avvalgi dron-shou kompleksida osmonda yasaldigan geometrik figuralarni tuzish dasturiy platformasi xitoylik ishlab chiqaruvchi kompaniyaning o‘zida bo‘lib, har gal shou uchun figuralar dasturi shu kompaniyaga buyurtma qilingan. Yangi avlod kompleksida esa bu figuralar Xitoyda malaka oshirib kelgan mutaxassislarimiz tomonidan bajarildi. Bu har bir dron-shou xarajatlarida 10 ming dollargacha mablag‘ tejash, eng muhimi, dron-shouni ishlab chiqaruvchi kompaniya ishtirokisiz tashkil etish imkonini beradi.

Bundan tashqari, yangi avlod dronlarining uchish tezligi, tegishli pozitsiyani egallashga vaqt sarfi, tashqi haroratga, shamolga bardoshlilik ko‘rsatkichlari oldingi avloddagilarnikiga nisbatan 1,5 baravar kuchli. Yana bir muhim xususiyat, yangi avlod dronlar tarkibida feyerverk otuvchi maxsus dronlar borligida. Bu dronlar universal bo‘lib, yorug‘lik tarqatuvchi dron rejimida ham, feyerverk otuvchi rejimda ham ishlash funksiyalariga ega.



“Oddiy geometrik tasvir yoki ramzlarni hosil qilish uchun 300 tadan ortiq dron yetarli bo‘ladi. Ammo milliy ramzlar, harakatlanuvchi animatsiyalar yoki 3D ko‘rinishdagi katta kompozitsiyalar uchun mingdan ortiq dron jalb etilishi mumkin. Odatda dron-shou tadbirlarini o‘tkazish uchun 250-300 ta, katta tadbirlarda 1200-1500 ta mikrodrondan foydalanamiz.

chiqadi, dronlar harakatini sinxronlashtiradi va xavfsizlikni ta‘minlaydi. Tayyorgarlik vaqti ham tasvirning murakkabligiga bog‘liq — oddiy tasvir uchun kamida 3 kun, katta va murakkab animatsiyalar uchun esa 1 haftagacha vaqt talab etiladi.

Zarur bo‘ladigan dronlar soni ham shaklning hajmi va murakkabligiga bog‘liq. Oddiy geometrik tasvir yoki ramzlarni hosil qilish uchun 300 tadan ortiq dron yetarli bo‘ladi. Ammo milliy ramzlar, harakatlanuvchi animatsiyalar yoki 3D ko‘rinishdagi katta kompozitsiyalar uchun mingdan ortiq dron jalb etilishi mumkin. Odatda dron-shou tadbirlarini o‘tkazish uchun 250-300 ta, katta tadbirlarda 1200-1500 ta mikrodrondan foydalanamiz.

Dron-shoular o‘tkazish Markaziy Osiyoda birinchi bo‘lib O‘zbekistonda 2018-yildan boshlangan. Hozirgi kunda bu yo‘nalish ancha ommalashtib, zamonaviy madaniy tadbirlarning ajralmas qismiga aylandi. Boisi, dunyo davlatlaridagi kabi yurtimizda ham dron-shoularga qiziqish yuqori. Shu davrga qadar mamlakatimiz bo‘ylab 45 dan ortiq shunday shou o‘tkazilgani buning misoli. Katta tadbirlar, bayram sanalarida yuzlab, minglab o‘zi uchar qurilma ishtirokida ko‘rsatilayotgan bunday tomoshalar barchada o‘zgacha hissiyot uyg‘otadi. Ya‘ni dron-shoular ijtimoiy-ma‘naviy ahamiyatiga ko‘ra, xalqimizga bayramlar va muhim sanalarda o‘ziga xos kayfiyat, zavq



o‘ziga xos shaxsiy g‘ururni, faxmi uyg‘otadi. Tomoshabinlarning texnik madaniyati yanada yuksalishiga turki beradi. 2023-yilda o‘tkazilgan dron-shoudan keyin ijtimoiy tarmoqlarda chiqqan bir e‘tirofi misol sifatida keltirib o‘tmoqchiman: **“Boshqalarda dronlardan harbiy maqsadlarda foydalanilayotgan vaqtda O‘zbekistonda tinchlik dronlari uchmoqda. Dunyo tinchlikni O‘zbekistondan o‘rgansa arziydi!”**

Yana bir holatga to‘xtalib o‘tishni joiz deb hisoblayman. Bilasizmi, har bir katta tadbirda

butun hududlarni o‘tib o‘lchash ishlari qilingan bo‘lsa, endilikda relyefli kartalar dronlarda olingan tasvirlar orqali yaratilmoqda.

Markazimiz mutaxassislari hozir bir nechta yo‘nalishlarda tadqiqot ishlari olib bormoqda. Dronlar yordamida borish qiyin bo‘lgan yer maydonlariga turli o‘simlik urug‘larini (saksovil va shu kabi cho‘l o‘simliklari) yerga qadash, baland qavatli binolarning yuqori qavatlariga o‘t o‘chirish vositalarini purkash va yetkazib berish, shuningdek, suv havzalari va cho‘milish zonalarida qutqaruv gardishlarini yetkazib

Jarayon

Yurtimizda yoshlar va xotin-qizlar bandligini ta‘minlash, ijtimoiy faolligini oshirishga jiddiy e‘tibor berilmoqda. Bunday ezgu tashabbusning amaliy ifodasini Amudaryo tumani “Oq oltin” ovul fuqarolar yig‘ini misolida ham ko‘rish mumkin.

— “Oq oltin” ovul fuqarolar yig‘inidagi 1300 dan ziyod xonadonda 7500 dan ortiq odam yashaydi. Ulardan qariyb 3800 nafari xotin-qizlardir. Ana shu qatlamning hayotini yaxshilash, muammolarini hal etish, bandligini ta‘minlashda salmoqli ishlar bajarilmoqda, — deydi xotin-qizlar faoli Mohira Yakubova. — Xususan, “mahalla yettligi” xulosasi bilan 174 xotin-qiz “Ayollar daftari”ning 6-bosqichiga kiritilgan. Ularning 96 nafariga amaliy yordam berildi. Mahallamizdagi 136 ishsiz xotin-qizning qariyb 100 nafari kasbiy layoqatidan kelib chiqib, tadbirkorlik, hunarmandchilik va kasanachilikka jalb qilindi. Tashqi migratsiyadan qaytgan 6 ayol parrandachilik va chorvachilikka yo‘naltirildi. Bundan tashqari, yordamga muhtoj 36 xotin-qizning muammosi o‘rganilib, 12 nafarining masalasi ijobiy hal etilgan. Probat siya nazoratidagi 7 ayol kasbiy layoqatidan kelib chiqib, ish bilan ta‘minlangan.

Mahallada xotin-qizlarni iqtisodiy faollikka chorlash maqsadida hunarmandchilik,

tikuvchilik, chorvachilik va parrandachilik yo‘nalishlaridagi loyihalar yo‘lga qo‘yilgan. Ayniqsa, migratsiyadan qaytgan ayollarni ijtimoiy hayotga qaytarish bo‘yicha qilingan ishlar diqqatga sazovor. Joriy yil boshida xorijdan qaytgan 3 xotin-qizning parrandachilikni boshlashi uchun kredit olishida yordam berildi. Shu orqali ular oilasining iqtisodiy barqarorligiga hissa qo‘shmoqda.

Hududda xotin-qizlarning bandligini ta‘minlash bilan birga qadimiy hunarlarni asrab-avaylash va kelajak avlodga yetkazish borasida ham muayyan ishlar qilinmoqda. Jumladan, gilamdo‘zlik borasida mohir hunarmand To‘lg‘anoy Xudaybergenovaning xizmat alohida e‘tiborga loyiq. U gilam to‘qish sirlarini o‘quvchilik paytidan o‘rgangan. Shu hunarga mehr qo‘yib, avlodlar o‘rtasidagi oltin halqa vazifasini o‘tab kelyapti.

— Maktabni tamomlagach, otam bilan akam katta gilam to‘qish dastgohini yasab bergandi. Uni hozirgacha avaylab saqlab

kelyapman. Uydagi barcha gilamni shu dastgohda o‘zim to‘qiganman, — deydi hunarmand. — Shu kungacha ko‘plab shogirdlar tarbiyaladim. Kelinlarim va nevaralarim ham yonimda katta qiziqish bilan gilamdo‘zlik sirlarini o‘rganmoqda.

QORAQALPOG‘ISTONLIK YOSHLAR ISHONCHNI OQLAYAPTI

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Prezidentimizning “Yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish va bandligini ta‘minlash, shuningdek, yangi yer maydonlarini o‘zlashirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hayotga ichil tatbiq etilib, yuksak samara bermogda. Qaror asosida Amudaryo tumanining Xolimbeg ovulidagi 23 yigit-qizning har biriga 25 sotixdan — jami 8,5 gektar yer ajratilgan. Bu maydonda yoshlar oila a‘zolari bilan birga mehnat qilib, oilasining farovonligini ta‘minlamogda.

Dastlab mahallalardagi ishsiz yoshlar ro‘yxati shakllantirilgan. So‘ng tuman zaxirasidagi 400 gektarga yaqin yer 1104 yoshga ajratib berilgan edi. Hozir bu maydonlarga turli ekinlar ekilgan. Mehnatkash yoshlar shu orqali yerdan yuqori hosil va mo‘may daromad olmogda. Bu aholi uchun barqaror daromad manbai bo‘lishi barobarida tumanda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, ichki bozorni toza va sifatli mahsulotlar bilan to‘ldirishga ham xizmat qilyapti. Qolaversa, bu yil 800 dan ziyod yigit-qizga g‘alladan bo‘shagan 121 gektar yer mavsumiy ijara asosida ajratib berildi.

Minajatdin QUTLIMURATOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetaları tahririyati” DM

MOUSSIS: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir: Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas‘ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-946. 34830 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Bekkul Egamqulov Musahhih: Akbar Qarshiyev Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e‘lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05